

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.P.03.02.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

ISMAYLOVA RA’NO NURAYEVNA

**ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH
VA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
психологических наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of
psychological sciences (DSc)**

Ismaylova Ra'no Nurayevna

Zo'ravonlikka uchragan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va psixologik yordam ko'rsatish texnologiyalarini takomillashtirish..... 3

Исмайлова Раъно Нураевна

Совершенствование технологий оказания поддержки и психологической помощи жертвам насилия..... 34

Ismaylova Rano Nurayevna

Improvement of technologies for providing support and psychological assistance to victims of violence..... 67

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 73

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.P.03.02.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

ISMAYLOVA RA’NO NURAYEVNA

**ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH
VA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH TEXNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/P57 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Qodirov Kamoliddin Botirovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullajonova Dilnoza Sultanbekovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ro‘ziqulov Faxriddin Rasulovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Isakova Muazzam To‘lqinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.P.03.02.raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871-276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.E.Muxtarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

D.U. Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori
(DSc), professor

A.E.Muxtarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda gender va oilaviy zo‘ravonlik, xususan, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularni turli ko‘rinishdagi zo‘ravonliklardan himoya qilish hamda genderga asoslangan zo‘ravonlikka qarshi kurash masalalari bilan uzoq yillardan beri xalqaro darajada kurashib kelinmoqda. Dunyo bo‘ylab ayollarning qariyb 30 foizi jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikka, har sakkizinchi esa har yili oilaviy zo‘ravonlikka uchrayotgan, shuningdek, aholining 25 foizigacha qismi ayollarni kaltaklashni hamon oqlayotgan bir sharoitda 1995-yilgi Pekin konferensiyasidan buyon global miqyosda gender tengligini ilgari surayotgan xalqaro hamjamiyat jabrlanuvchilarni himoya qilish va kamsitishni bartaraf etish ustida ish olib bormoqda¹.

Jahon psixologiyasida ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalasi jamiyatda keng tarqalgan muammo sifatida baholanib, uning shaxs rivojlanishi va shakllanishiga ta’sir etuvchi og‘ir oqibatlar, oila a’zolarining ruhiy salomatligiga salbiy ta’siri bo‘yicha chuqur tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi sabablar hamda uning oldini olish va bartaraf etish usullarini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, oilaviy zo‘ravonlik umumiy tushuncha sifatida ko‘rilmasdan, slohida turlarga, ya’ni bolalar (o‘g‘il va qiz), keksalar, ayollar, erkaklar, shuningdek jinsiy farqlarga qarab alohida tahlil etilmoqda. Shu o‘rinda, nikoh munosabatlarida er va xotin tomonidan bir-biriga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik shakllarini aniqlash hamda ushbu fenomenni tizimli ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tadqiq etish zarurati ham yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda oilaviy zo‘ravonlik muammosi nafaqat ma’lum bir shaxsning, balki butun jamiyatning xavfsizligiga tahdid solishi dolzarb masala ekanligi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida» hamda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunlarining qabul qilinishi bilan asoslanadi. «O‘zbekiston – 2030» taraqqiyot dasturining 1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar qismida jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish belgilangan. Ushbu dissertatsiya ishi ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya, oilaviy psixologiya sohasidagi bir qator xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish va to‘ldirish, shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam ko‘rsatish usullari hamda texnikalari yetarli darajada ishlab chiqilmagani bilan bog‘liq. Oilaviy zo‘ravonlik va gender munosabatlaridagi zo‘ravonlik muammosini tahlil qilishning taklif etilayotgan konseptual sxemasi «oilaviy zo‘ravonlik», «jabrlangan ayol» va «jabrlangan erkak»ning psixologik muammolarini har tomonlama va tizimli ravishda

¹Progress on the sustainable development goals: the gender snapshot 2025// <https://asiapacific.unwomen.org/en/digital-library/publications/2025/10/the-gender-snapshot-2025>

ko‘rib chiqishga qaratilgan urinishlardan biri bo‘lib, bu oilaviy zo‘ravonlik vaziyatida samarali psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini aniqlashga imkon berib, zo‘ravonlik sodir bo‘lgan, nizoli, muammoli oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish nazariyasi hamda amaliyotini yanada boyitadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-829-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son hamda 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida» PF-158-son Farmonlari, 2024-yil 10-maydagi «Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-175-son qarori, 2024-yil 5-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining «Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida»gi O‘RQ-989-sonli Qonuni va boshqa qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni ijtimoiy-psixologik va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda nazariy va amaliy hal etishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishga, jabrlangan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish, reabilitatsiya qilish va tizimli qo‘llab-quvvatlashning ilg‘or usullarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo‘naltirilgan dunyoning yetakchi tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlarida, jumladan: Manchester universiteti (Buyuk Britaniya), Centre for Academic Primary Care markazi (Buyuk Britaniya Bristol universiteti), Department of Psychology College of Arts, Humanities & Social Sciences, Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA, AQSh), Psixologiya fanlari assotsiatsiyasi (APS, AQSh), Avstraliya psixologlar jamiyati (APS), Maktab psixologlari milliy assotsiatsiyasi (NASP, AQSh), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya) tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish, ularga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi natijalar olingan: pandemiya davrida oilaviy zo‘ravonlikdan himoya qilishda idoralaro hamkorlik, jabrlanuvchilarning qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining moslashuvi o‘rganilgan va izolyasiya sharoitidagi preventiv dasturlarning ilg‘or tajribalari tizimlashtirilgan (Buyuk Britaniya); oilaviy zo‘ravonlik holatlariga erta aralashuv, uning oldini olish va zo‘ravonlikdan

jabrlangan shaxslarning psixologik kompetentligini oshirish, oilaviy munosabatlardagi xavf, himoya omillari, er-xotin munosabatlarining rivojlanishi hamda nikoh ta'limi to'g'risida bilimlarni rivojlantirish, oilaviy zo'ravonlik natijasida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni, zo'ravonlikning barcha shakllarini bartaraf etishga qaratilgan, zo'ravonlikni tushunish, nazorat qilish hamda oldini olish dasturlari ishlab chiqilgan (AQSh); zo'ravonlikka qarshi kurashish va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasida fanlararo tadqiqotlar olib borish tizimlashtirilgan (Rossiya)¹.

Jahonda oiladagi zo'ravonlik va jarblanuvchilarga psixologik yordam ko'rsatish masalalari bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, agressivlik va destruktiv xulq-atvor yuqori bo'lgan oilalarda ota-ona va farzand munosabatlari dinamikasini transformatsiya qilish, oilada shafqatsiz xulq-atvorning yashirin va oshkora shakllari paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan psixologik himoya va profilaktika usullarini ishlab chiqish hamda taklif etish, muammoli oilaviy muhitda shaxslaro munosabatlarning o'ziga xos jihatlari, rol strukturalaridagi buzilishlarni va agressiv modellarni tadqiq etish, psixologik jarohat oqibatlarini imkon qadar kamaytirish maqsadida oiladagi zo'ravonlikka guvoh bo'lgan yoki undan jabr ko'rgan bolalarga kompleks ijtimoiy-psixologik yordam va rehabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish, turli darajadagi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillarni o'rganish orqali shaxsning psixologik salomatligi va xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qartish, zo'ravonlik natijasida o'tkir stress va jarohatdan keyingi buzilishlar holatida bo'lgan shaxslarga shoshilinch yordam ko'rsatish uchun inqirozli psixologik xizmatni jorish etish, psixoterapevtik yondashuvlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, psixokonsultatsiya, psixokorreksiya, inqirozli intervensiya va terapevtik suhbatni differinsiallashgan usullarini joriy etish asosida oilani ijtimoiy -psixologik qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda yetakchi psixolog olimlardan D.U. Abdullayeva, X.U. Abdusamatov, F.A. Akramova, R.N. Alimardanova, G.B. Ishankulova, I.A. Jabborov, V.M. Karimova, X.K. Karimov, Z.B. Rasulova, F.R. Ro'ziqulov, N.A. Sog'inov, S.Sh. Ummatova, G'.B. Shoumarov, O'.B. Shamsiyev, M.A. Utepbergenov hamda boshqalar o'zbek oilalari va boshqa millat oilalarining o'ziga xos xususiyatlari, nizoli vaziyatlarda asrlar davomida shakllanib kelgan xatti-harakat modellariga tayanishlari, shuningdek, gender munosabatlarning shakllanish xususiyatlari kabi muammolarni ochib berganlar².

¹<https://liberalarts.du.edu/psychology/familyresearch;>

[https://www.bristol.ac.uk/primaryhealthcare/researchthemes/appropriate-and-effective-care/domesticviolence.html;](https://www.bristol.ac.uk/primaryhealthcare/researchthemes/appropriate-and-effective-care/domesticviolence.html)

[https://psycnet.apa.org/home;](https://psycnet.apa.org/home) <https://www.psychologicalscience.org/tag/domestic-violence;>

[https://psychology.org.au/community/advocacy-social-issues/violence;](https://psychology.org.au/community/advocacy-social-issues/violence) [https://www.nasponline.org/;](https://www.nasponline.org/)

[https://www.griffith.edu.au/arts-education-law/violence-research-and-prevention-program;](https://www.griffith.edu.au/arts-education-law/violence-research-and-prevention-program)

[https://www.cidrap.umn.edu/sites/default/files/php/146/146_guide.pdf;](https://www.cidrap.umn.edu/sites/default/files/php/146/146_guide.pdf)

[https://spbu.ru/centr-po-izucheniyu-problem-domashnego-nasiliya-spbgu;](https://spbu.ru/centr-po-izucheniyu-problem-domashnego-nasiliya-spbgu) [https://familyvio.csw.fsu.edu/aboutinstitute.](https://familyvio.csw.fsu.edu/aboutinstitute)

²Abdullayeva D.U. O'zbek oilalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari. Avtoref. diss. ... psixol. fan.. dok. (DSc). – T., 2023, – 30 b. Abdusamatov H.U. Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: avtoref. diss. ...psixol. bo'yicha fals. dok. (PhD). – Toshkent, 2019. – 21 b. Akramova F.A.

MDH mamlakatlarida A. Al-Odayni Magda Moxamed, O.A. Aksenova, G.A. Brand, L.Y. Bondarenko, Y.V. Gradskova, I.D. Gorshkova, M. Katovskaya, S.V. Koschetkova, A.B. Orlova, M.P. Pisklakova, N.M. Rimashevskaya, Y.N. Yelizarov, I.I. Shurigina ishlarida oilaviy zo‘ravonlik; A.V. Lisova, Y.Y. Jigaleva, G.G. Sillaste kabi tadqiqotchilar ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosini o‘rgangan. Y.A. Brayseva, M. Kostenko, S.A. Timko, V.P. Timko, O. Zdravomislova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari erkaklarga nisbatan zo‘ravonlik mavzusiga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya «2022 – 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur»ning ijrosini ta‘minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasidagi «xotin-qizlar orasida tazyiq va zo‘ravonlikka uchrash holatlarining oldini olish» va «oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ‘ib etish orqali oilalardagi sog‘lom va ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash» hamda «Oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish» bandlarining ijrosini bajarish doirasida JHBL-18 sonli « Oilaviy zo‘ravonlik: sabab, oqibat va ijtimoiy -tarixiy jihatlari» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zo‘ravonlikka uchragan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha integrativ texnologiyalar samaradorligini aniqlash va ularni takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oilaviy zo‘ravonlikka uchragan shaxslar bilan ishlash bo‘yicha psixoterapevtik yondashuvlarni baholashda SWOT tahlilini qo‘llash orqali ularning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va ehtimoliy tahdidlarini aniqlash orqali ushbu yondashuvlarning samaradorligi va ularni takomillashtirish yo‘llarini aniqlash;

O‘zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari: avtoref. diss. ...psixol. fan. dok (DSc). – Toshkent, 2022. – 31 b. Alimardanova R.N. Yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta‘minlashning ijtimoiy-etnik asoslari: avtoref. diss. ... psixol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD). – Toshkent, 2022. – 27 b. Ishankulova G.B. O‘zbek oilalarida shaxslaro munosabatlar ta‘siridagi gender tenglikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: avtoref. diss. ... psixol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD). – Buxoro, 2024. – 26 b. Rasuleva N.Z. Qayta nikohga kirish motivatsiyasining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari: avtoref. diss. ...psixol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD). – Toshkent, 2020. – 21 b. Ro‘ziqulov F.R. O‘zbekistonda nikohdan ajralishning ijtimoiy-psixologik muammolar. avtoref. diss. ...psixol. fan.. dok. (DSc). - Toshkent, – 2024.30b. Sultonova M.R. Oilada zo‘ravonlikka uchragan ayollarda koping-strategiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: avtoref. diss. ... psixol. fan. bo‘yicha fals. dok.(Ph.D) -Toshkent, 2024. – 20 b. Tovbayeva M.S. Muammoli oilalarning gender munosabatlarida psixologik despotizm profilaktikasi: avtoref. diss. ...psixol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD). – Samarqand, 2022. – 24 b. Ummatova S.Sh. Rashk fenomenining oila munosabatlaridagi gender va yosh farqlari: avtoref. diss. Каримова В.М. Социальные представления об узбекской семье у юношей и девушек: Автореф. ...д-ра психол. наук. –Т.: ТГПИ,1994. – 40 с. Каримов Х.К. Социально-психологические особенности супружеских конфликтов в узбекской семье. Автореф. дис. ...канд. психол. наук. – Т., 1994. – 19 с. Хикматуллаева Р.Н. Гендерные особенности в представлениях о семейно-брачных отношениях как фактор определяющих жизнедеятельность семьи. Автореф. дис. ... психол. наук. – Тошкент, 2009. – 22 б.

oilada agressiv va zo‘ravonlik xatti-harakatlarini idrok etishdagi gender farqlarni hisobga olish, zo‘ravonlik belgilarini erta aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda zo‘ravonlik oqibatlarini bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish zarurligini asoslash;

oilaviy zo‘ravonlikka uchragan shaxslardagi salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari bilan psixoemotsional holatlar, nikoh munosabatlaridagi rollarga oid kutilmalar hamda shaxs ichki ziddiyatlarining o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish;

oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanganlarning psixologik muammolarini hal etish uchun ichki resurslarni izlash hamda kognitiv va emotsional xulq-atvorda ijobiy o‘zgarishlarni ta‘minlashga qaratilgan psixologik yordam ko‘rsatish modelini ishlab chiqish, uning amaliy imkoniyatlarini asoslash;

oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollar va erkaklarning psixologik muammolarini aniqlash hamda psixologik yordam ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirishda gender farqlarga asoslangan psixologik yordam modellarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar tanlangan bo‘lib, Toshkent viloyatidan 52 nafar erkak va 73 nafar ayol, Surxondaryo viloyatidan 37 nafar erkak va 71 nafar ayol, Namangan viloyatidan 26 nafar erkak va 65 nafar ayol respondentlar jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishning zamonaviy usul va texnologiyalari hamda ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, K.B. Qodirov va R.N. Ismaylovalarning “Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini aniqlash” so‘rovnomasi, D.R. Follingstad va D.D. Dixardning (I.A. Furmanov modifikatsiyasi) “Turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlik namoyon etilishi”, J. Fahrenber, X. Zarg, R. Gampellarning “Frayburg ko‘p omilli shaxs so‘rovnomasi”, A. Volkovanning “Sheriklarning rollardan kutilmalari (umidlari)”, Spilbergerning “Shaxsiy tashvishlanish so‘rovnomasi”, M. Xorovis va N. Uilnerlarning “Jarohatli hodisa ta‘sirini baholash”, A.I. Shipilovning “Shaxs ichki ziddiyatlari darajasini aniqlash” testi, G. Ayzenkning “Shaxs psixik holatlarini baholash”, “Psixologik yordamga muhtojlik” so‘rovnomasi, A. Bekning “Depressiya shkalasi”dan foydalanildi.

Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan: Xi-kvadrat, so‘rovnoma shkalalarining normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirish uchun Kolmogorov-Smirnov Z mezoni, o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tanlanmalarni taqqoslash uchun Mann-Uitni U mezoni, Kruskal-Uollis H mezoni, turli xususiyatlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini tahlil etish uchun Spirman mezoni asosida qayta ishlandi va tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oilaviy zo‘ravonlikka uchragan shaxslar bilan ishlash bo‘yicha psixoterapevtik yondashuvlarni baholashda SWOT orqali ehtimoliy tahdidlar va ularga terapevtik ta‘sir ko‘rsatish vositalarining shaxs ehtiyojlariga ob‘yektiv mosligini aniqlash muhimligiga ko‘ra an’anaviy, noan’anaviy, o‘zaro zo‘ravonlik turlarida analitik,

xulq-atvor, gumanistik qarashlarning o‘zaro to‘ldiruvchi, komplementar xususiyatli integrativ kontrasti aniqlangan;

erkak va ayollarning o‘zlariga nisbatan yo‘naltirilgan agressiv xatti-harakatlarga nisbatan differensial munosabati natijasida ayollar bunday holatni zo‘ravonlik va tahdid sifatida qabul qilishlari, o‘zlarining agressiv harakatlariga esa janjal yoki tushunmovchilik sifatida qarab, buni hissiy va kommunikativ qiyinchiliklar bilan izohlashlari, erkaklar esa o‘zlariga nisbatan amalga oshirilgan agressiv xatti-harakatlarni oiladagi janjal, tushunmovchilik yoki nazorat vositasi sifatida izohlashlari, o‘zlarining agressiv xatti-harakatlarini oilada tartib-intizom va iyerarxiyani ta‘minlash funksiyasi deb qabul qilishlari tufayli zo‘ravonlikdan xoli mulqot strategiyalarini gender sezgirlik asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan psixologik yordam texnikalarini ishlab chiqish zarurati dalillangan;

zo‘ravonlikdan jabrlanganlarning turmush o‘rtog‘ida jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish, umumiy beqarorlashtirish, ustunlik qilish, muammolarni noadekvat hal etish kabi salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari namoyon bo‘lishi tufayli rolli kutilmalar va da‘vogarlik darajasining shaxs ichki ziddiyatlarining kuchayishi ta‘sirida ortishi hamda salbiy emosional-psixologik holatlarning vujudga kelishi aniqlangan;

zo‘ravonlik qurbonlarini psixologik qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish modeli oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsda ichki resurslarni izlash, adekvat fikrlash va o‘zini qabul qilish, hissiy holatni tartibga solish qobiliyatini rivojlantirish muhimligiga ko‘ra xavotirlanish darajasini pasaytirishga, ijobiy kognitiv va emosional xulq-atvor shakllarini barqarorlashtirish komponentlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

oilaviy zo‘ravonlikka uchragan erkak va ayollar uchun alohida psixologik qo‘llab-quvvatlash va yordam modellarini ishlab chiqish zarurati har ikkala jins vakillarining ijtimoiy rollari, psixologik xususiyatlari, og‘ir ijtimoiy vaziyatni va jarohatni boshdan kechirishdagi tajribalari, shuningdek, sub‘yehtlikni tiklashga bo‘lgan o‘ziga xos ehtiyojlarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqligiga ko‘ra ichki agressiv dunyodan affektiv reaksiyalarga kognitiv va somatik darajada ta‘sir etish orqali sog‘lom “Men”ni ajratib olish bilan bog‘liq ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: tadqiqot davomida oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish metod va texnikalari takomillashtirilgan, gender xususiyatlarni hisobga olgan holda maxsus metodik dastur hamda qo‘llab-quvvatlashning samarali texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan, shuningdek mazkur majmua Toshkent shahri va Toshkent viloyati aholisi bilan olib borilgan ijtimoiy-psixologik ishlar doirasida muvaffaqiyatli ravishda qo‘llanilgan va ommalashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot vazifasidan kelib chiqqan holda oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning psixologik muammolarini diagnostika qilishga asoslangan metodikalardan foydalanilgani, tadqiqot obykti sifatida turli hududlardagi respondentlarning tanlanishi; sinaluvchilar guruhining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik ma‘lumotlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari qayta

ishlangani va korrelyatsion tahlil metodlari qo'llanganligi, ilmiy yangilik va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarni tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda gender va oilaviy zo'ravonlik yondashuvi (erkak va ayol) asosida psixologik muammolar hamda ijtimoiy-psixologik omillar orasida bog'liqlik aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muallif tomonidan oilaviy zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga psixologik yordam ko'rsatish jarayonini tashkil etish bo'yicha taklif qilingan yondashuv, shuningdek, uning psixologik, ijtimoiy markazlarda amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan modeli va o'ziga xos usullari, shaxsga psixologik yordam tashkil etishning umumiy strategiyasi uchun asos bo'lishi mumkin hamda mahalla, reabilitatsiya markazlarida psixologik xizmatlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zo'ravonlikka uchragan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va psixologik yordam ko'rsatish texnologiyalarini takomillashtirishni o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

erkak va ayollarning oilaviy zo'ravonlikdan jabrlanish holatida xotin yoki uning ota-onasi tomonidan oilaning moddiy ta'minlanishi turmush o'rtog'ida xo'jalik-maishiy, emotsional-psixoterapevtik va tashqi jalb etuvchanlik rollarini bajarish bo'yicha kutilmalarning ortishi, ichki ziddiyatlarining kuchayishi hamda salbiy psixologik va emotsional holatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lishi aniqlangan yangilik "Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 34-son buyrug'iga asosan Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" va "Oila psixologiyasi" modullariga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 12-dekabr PM-285 a-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida mahalla, oila bilan ishlash sohasida tayyorlanadigan psixologlarning kasbiy ahamiyatli tayanch kompetensiyalarini shakllantirish hamda oilaviy zo'ravonlik va uning jabrlanuvchilari bilan ishlash bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish sohasida sifat jihatdan o'sishga erishilgan;

oilada qo'shimcha daromadning mavjud emasligi sheriklarning jinsiy munosabatlar, xo'jalik-maishiy, ota-onalik va tarbiyaviy, ijtimoiy faollik, emotsional-psixoterapevtik, tashqi jalb etuvchanlik rollarini bajarishlari bo'yicha kutilmalari hamda da'vogarlik darajasining ortishiga olib kelishi isbotlangan yangilik "Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 34-son buyrug'iga asosan "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" va "Oila psixologiyasi" modullariga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 12-dekabr PM-285 a-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida ta'lim, mahalla, ijtimoiy ish, oilaga psixologik xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan samarali ijtimoiy-psixologik ish bo'yicha ilmiy-metodik ta'minotining boyitilishiga erishilgan;

oilada turmush o'rtog'ining giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kabi salbiy omillar moslashuv ziddiyati, depressiya, er-xotin muammolarini noadekvat hal etish, vaziyatga reaksiya sifatida bostirib kirish, qochish, qo'zg'aluvchanlik, ustunlik qilish kabi noadekvat pozitsiyalar shakllanishiga turtki bo'lishi dalillangani haqidagi taklifi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi "Psixologiya" o'quv-ilmiy markazining 34-son buyrug'iga asosan "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" va "Oila psixologiyasi" modullariga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 12-dekabr PM-285 a-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qo'llanishi natijasida amaliy psixologiya raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda gender zo'ravonlik va oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan samarali ish olib borish bo'yicha ilmiy-metodik ta'minotining boyitilishiga erishilgan;

oilaviy zo'ravonlikka uchragan erkaklarda ijtimoiy hayotga moslashuv ziddiyati, depressiya, jizzakilik, reaktiv agressiya, shaxsiy identifikatsiya noadekvatligi, emotsional psixoterapevtik kutilmalarning ortishi, ustunlik qilish, jarohatdan keyingi stress buzilishi kabi psixologik muammolar vujudga kelishining isbotlangani bilan bog'liq taklif Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi "Psixologiya" o'quv-ilmiy markazining 34-son buyrug'iga asosan "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" va "Oila psixologiyasi" modullariga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 12-dekabr PM-285 a-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qo'llanishi natijasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda gender zo'ravonlik va oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan samarali ish olib borish bo'yicha ilmiy-metodik ta'minotining boyitilishiga erishilgan. Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarda zo'ravonlikka nisbatan barqarorlikning namoyon bo'lishini prognoz qilish imkoniyatlari kengaytirilgan va bo'lajak amaliy psixologlarning kelgusidagi amaliy faoliyatini samarali tashkil etishda kasbiy imkoniyatlarining oshirilishiga erishilgan;

oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxsning ichki resurslarni izlash, adekvat fikrlash va o'zini o'zi qabul qilish, hissiy holatni tartibga solish qobiliyatini rivojlantirish orqali xavotirlanish darajasini pasaytirishga, ijobiy kognitiv va emotsional xulq-atvor shakllarini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion model ishlab chiqilgan va uning amaliy imkoniyatlari asoslangani to'g'risidagi yangilik Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi "Psixologiya" o'quv-ilmiy markazining 34-son buyrug'iga asosan "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" va "Psixokorreksiya" modullariga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 12-dekabr PM-285 a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oilaviy zo'ravonlikka uchragan shaxslarning psixologik muammolarini aniqlash va tuzatish hamda amaliyotga joriy bo'yicha manzilli amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 1 ta monografiya, 14 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 12 ta respublika, 3 ta

xorijiy jurnallarda chop etilgan. Tadqiqot natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining 2 ta guvohnomasi olingan..

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, 13 paragraf va xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 309 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot obyekti ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oilaviy zo‘ravonlik muammosini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi to'rt paragrafdan iborat bo'lib, tadqiqotning konseptual modelini o'z ichiga oladi. M. Stros, R. Djells va S. Shteynmes, V. Lourens Sherman, A. Richarda Berk, R. Sidl, Dj. Zorz, Dj. Tedeski, R. Felson K. Uilyams, R. Xokins kabi olimlarning ishlarida oiladagi zo'ravonlik muammosi birinchi bo'lib ijtimoiy va huquqiy hodisa sifatida shakllantirilgani hamda ayollar va bolalar uning asosiy obyekti sifatida aniqlangani e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar M. Straus, M. Fibert, B. Kraxe, L. Mills, D. Xaynslar oilaviy zo'ravonlikda ayollar ham erkaklarga nisbatan zo'ravonlik ko'rsatishini ta'kidlaydilar. O'zbekistonda E. Fayzullayeva, M.A. Turobova, M.S. Tovbayeva, F.U. Xamdamova, M.R. Sultonova, I.M. Rasulovalarning ilmiy tadqiqotlarida juftliklardagi gender zo'ravonligi va despotizm determinantlari, agressorlarning shaxsiy belgilari, shuningdek, jabrlangan ayollarning yosh xususiyatlari va koping strategiyalarini shakllantirish mexanizmlari kabi muammolar tadqiq etilgan.

Nazariy va empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida oilaviy munosabatlarda zo'ravonlikning shakllari ajratildi (1-jadval).

1-jadval

Oilaviy munosabatlarda zo‘ravonlikning shakllari

Zo‘ravonlik shakllari	Ta‘rifi
An’anaviy shakl	Erkak zo‘ravon, ayol jabrlanuvchi. Ijtimoiy-madaniy-tarixiy jihatdan shartlangan va eng ko‘p tarqalgan zo‘ravonlik shakli. Erkak ayolni kuch ishlatish orqali boshqarishini o‘z ichiga oladi.
Noodatiy shakl	Ayol zo‘ravon, erkak jabrlanuvchi. Eng kam o‘rganilgan shakli: ayolning erkakka nisbatan zo‘ravonligi. Ko‘pincha ijtimoiy stigmalari tufayli yashirin qoladi
O‘zaro zo‘ravonlik	Er va xotin ham zo‘ravon, ham jabrlanuvchi. Turmush o‘rtoqlar navbatma-navbat yoki bir vaqtda zo‘ravon (o‘zini himoya qilish) va jabrlanuvchi rolini bajaradigan murakkab dinamika bo‘lib, zo‘ravonlik davriy tus ola boshlaydi.

Psixoterapevtik yondashuvlarning SWOT-tahlili (2-jadval) zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlarga psixologik yordam ko‘rsatish usullarini tanlashni optimallashtirish hamda ularni qo‘llash xatarlarini minimallashtirish imkonini berdi.

2-jadval


Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishda psixoterapevtik yondashuvlar va usullarning SWOT tahlili

Yo‘nalish	Kuchli tomoni (S)	Kuchsiz (W)	Imkoniyat (O)	Xavf (T)
Analitik (psixodinamik, tranzakt tahlil)	Asosiy sabab va ssenariylarni chuqur o‘rganish	Mijozning o‘zini oqlash xavfi va psixologning subyektivligi	Bolalikdagi jarohatlarni o‘rganish va hayot ssenariysini o‘zgartirish	Intellektuallashtirish (o‘zgarishlar o‘rniga fikrlar doirasida qolish)
Xulq-atvor (KXAT, DXAT)	O‘z -o‘ziga yordam, tizimlilik, qisqa muddatlilik, isbotlangan samaradorlik	Og‘ir psixologik jarohat olgan mijoz uchun bu usul haddan tashqari “quruq” va buyruq ohangida qabul qilinishi mumkin	Mijozda o‘ziga o‘zi yordam berish va irratsional fikrlar bilan ishlash ko‘nikmasi tez shakllanadi	Intellektuallashtirish xavfi, ya‘ni mizoj muammoga mantiqiy yondashadi va hissiy jarohatlar ustida faol ish olib borilmaydi
Gumanistik (ekzistensial, geshtalt, art-terapiya)	Yaxlit yondashuv, “hozir va shu yerda”, ijodkorlik va tugallanmagan vaziyatlar bilan ishlash	Samaradorlikni tasdiqlovchi dalillar bazasining cheklanganligi, natijalarning terapevt malakasiga bog‘liqligi	Tayyor yechimlar o‘rniga “nimani his qilyapman”, “nimani xohlayman” degan savollarni anglashda yordam beradi.	Kuchli hissiy holatlar mijozni vaqtinchalik yengillikka olib keladi, ammo muammo saqlanib qolishi mumkin
EMDR terapiya, tanaga yo‘naltirilgan terapiya, inqiroz terapiyasi	jismoniy va psixologik holat bilan ishlaydi, psixosomatik muammolarni bartaraf etadi.	Samaradorlik terapevtning intuitsiyasiga va “tanani o‘qish” qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, buni standartlashtirish qiyin	Jarohat vaqtida bostirilgan impulsni tana darajasida ishlash va javob berish imkoniyati	Streyes davrida usuldan foydalanish mijoz holatini vaqtincha yomonlashtirishi mumkin

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oilaviy zo‘ravonlik holatlarida shaxs xususiyatlarini tadqiq qilishni tashkil etish va usullari”** deb nomlanib, ushbu bobda oilaviy zo‘ravonlik sabablari hamda jabrlangan shaxslarni (erkak va ayol) o‘rganish va tanlangan metodikalar natijalari hamda nikohdagi o‘z destruktiv harakatlarini va o‘zlariga nisbatan destruktiv harakatlarini baholash natijalari aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma natijalari tahlili keltiriladi.


72% ayollar uchun bunday harakatlar zo‘ravonlik sifatida aniq tasniflanadi (1-rasm). Ayollar tomonidan jismoniy kuch va resurslarning cheklanganligi xavfsizlik va hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid sifatida qabul qilinadi. Ayollarning “janjal” (12%) va “tushunmovchilik” (6%) toifalarida past ko‘rsatkich qayd etishi ularning agressiyani kamdan-kam hollarda tasodifiy holat sifatida oqlashini ko‘rsatadi. Eraklarda esa zo‘ravonlikning me‘yorlashuvi seziladi (1-rasm): 32% buni “janjal” (oddiy ziddiyat) bilan izohlasa, 33% kuch ishlatish va haqoratlashni patriarxal

ssenariy doirasidagi qonuniy boshqaruv vositasi deb biladi. Shu bilan birga, erkaklarning atigi 17 foizi “zo‘ravonlik” toifasini tanlaydi, chunki ular uchun o‘zini jabrlanuvchi yoki tajovuzkor deb tan olish psixologik jihatdan qiyin. Natijada, erkaklar nazoratni iyerarxiya masalasi deb hisoblasa, ayollar buni zulm deb qabul qiladi. Boshqa tomondan, ayollar o‘z xatti-harakatlarining og‘irligini hissiyotlar orqali yumshatishga moyil (2-rasm). Ularning “zo‘ravonlik” (21%) toifasini tanlashi ijtimoiy mas‘uliyatni anglash bilan bog‘liq. Biroq, “janjal” (38%) va “tushunmovchilik” (32%) toifalaridagi yuqori ko‘rsatkichlar agressiyani “kommunikatsiyadagi uzilish” (“men tajovuzkorligimdan emas, kelisha olmaganimiz uchun baqiryapman” degan pozitsiyada) niqobi ostida yashirishga urinishni aks ettiradi.



1-rasm. Respondentlarning nikohda o‘zlariga nisbatan destruktiv harakatlarini baholash natijalari


Ayollarga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri bu – ayni paytda sodir bo‘layotgan vaziyatning jiddiyligini emotsiyalar prizmasi orqali yumshatishga moyilligidir (2-rasm).



2-rasm. Respondentlarning nikohdagi o‘z destruktiv harakatlarini baholash natijalari

O‘z xatti-harakatlarini baholashda zo‘ravonlik (21%) ko‘rsatkichini ayollarda ijtimoiy javobgarlikka asoslanib o‘z harakatlarini anglab yetishga intilishlari bilan izohlash mumkin. Janjal (38%) va tushunmovchilik (32%) psixologik jihatdan zo‘ravonlikni qat’iy fikr sifatida bartaraf etishga urinish bo‘lib, agressiv yoki zo‘ravon harakatni tan olish o‘rniga “muloqotdagi muvaffaqiyatsizlik”ka o‘tkazadi, ya’ni “men agressiv bo‘lganim uchun emas, balki kelisha olmaganimiz uchun baqiryapman yoki uning harakatini cheklayapman” fikri ostida bo‘ladi (2-rasm).

Erkaklar uchun agressiya ko‘pincha nizo emas, balki oilani boshqarishning funksional usuli bo‘lib, "janjal" (13%) va "tushunmovchilik" (13%) ko‘rsatkichlari muloqot emas, balki iyerarxiya masalalarini aks ettiradi. Bu yerda “janjal” (13%) va “tushunmovchilik” (13%) ko‘rsatkichlari muloqot muammolarini emas, balki iyerarxiya masalalarini aks ettiradi. Vaziyat yordam so‘rashga to‘sqinlik qiladigan ijtimoiy qarashlar tufayli yanada murakkablashadi: muammolarni mustaqil hal qilish fikrini erkaklarning 59,13 foizi va ayollarning 71,77 foizi qo‘llab-quvvatlaydi. “Haqiqiy erkak oilaviy muammolardan nolimaydi” degan fikrga esa erkaklarning 53,9 foizi qo‘shiladi (3-rasm). Bu esa his-tuyg‘ularning bostirilishiga va ziddiyatlarning keskinlashishiga olib keladi.



3-rasm. Oilada erkaklarga nisbatan gender stereotiplarning jinslar kesimida namoyon bo‘lishi (N=324)

Olingan ma’lumotlar erkaklar va ayollar o‘rtasida zo‘ravonlik sabablarini ijtimoiy stereotiplar, shaxsiy tajriba va madaniy ustanovkalar bilan bog‘liq bo‘lishi bilan izohlanadi. 25,22% erkaklar va 20,10% ayollar zo‘ravonlikni nizoli vaziyat deb hisobaydi. Erkaklar o‘z obro‘si yoki nazoratiga tahdid deb qabul qilishi ularda agressiyani kuchaytiradi. 23,48% erkaklar va 13,40% ayollar zo‘ravonlik sabablarini hissiyotlarni boshqara olmaslikda deb biladilar. 21,53% ayollar zo‘ravonlik sabablari sifatida moliyaviy muammolarni ko‘rsatishgan, bu ayollar moliyaviy beqarorlikni

oiladagi keskinlik va agressiyaning kuchayishi bilan bog‘lashlari bilan izohlanadi (3-jadval).

An’anaviy gender munosabatlari natijasi ayollarda (18,66%) ko‘proq ifodalanadi, bu holatni ayollarning patriarxal bosim tajribasini aks ettirishi bilan izohlash mumkin. Spirtli ichimliklarni 19,62% ayollar sabab sifatida ko‘rsatib, erkaklarda agressiv harakatlarni qo‘zg‘atuvchi sifatida qabul qilishlari bilan bog‘liq. Erkaklarda natija 13,04% ifodalanib, erkaklar spirtli ichimliklarni iste‘mol qilishlariga kamroq tanqidiy munosabatda bo‘ladilar (3-jadval).

3-jadval

Zo‘ravonlik sabablarini baholashda gender farqlar

№	Sabab	Erkak (n=115)	Ayol (n=209)
1	Hal qilinmagan nizolarning to‘planishi	25,22%	20,10%
2	His-tuyg‘ularni nazorat qila olmaslik	23,48%	13,40%
3	Moliyaviy qiyinchiliklar	13,91%	21,53%
4	An’anaviy gender munosabatlari (avtoritar boshqaruv)	16,52%	18,66%
5	Spirtli ichimliklar iste‘mol qilish	13,04%	19,62%
6	Boshqa	7,83%	6,70%
	Jami	100%	100%

Ayollar turmush o‘rtog‘i tomonidan jismoniy sog‘ligiga tahdidni ko‘proq boshdan kechiradilar ($p < 0,01$). Bu, albatta, ayollarga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy zo‘ravonlik yoki uni qo‘llash bilan tahdid qilishning yanada aniqroq xususiyatini ko‘rsatadi (4-jadval).

4-jadval

Oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchrashdagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	131,1	179,8	8412	0,000**
Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	149,5	169,6	10526,5	0,050*
Umumiy beqarorlashtirish	171,4	157,6	10989	0,202
Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	188,0	148,5	9083,5	0,000**
Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish	181,9	151,8	9786	0,006**

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Ayollarda jismoniy erkinlik ($p < 0,05$), ijtimoiy izolyatsiya va kundalik faollik ustidan nazoratning yuqoriroq darajasi qayd etilgan bo‘lib, bu shaxs avtonomiyasiga putur yetkazadi, qaramlikni kuchaytiradi hamda o‘rganilgan nochorlikni shakllantiradi. Erkaklarda esa turmush o‘rtog‘ining hissiy bosim, qadrsizlantirish va

manipulyatsiyalarda ifodalanadigan dominant xulq-atvorini ($p<0,01$) boshdan kechirish ko'rsatkichlari, shuningdek, muammolardan qochish, agressiya yoki keskinlashuvda namoyon bo'ladigan nizolarni noto'g'ri hal qilish ($p<0,01$) ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori (4-jadval).

Ushbu shkalalarning umumiy beqarorlik bilan bog'liqligi oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarda ichki ziddiyatlarning yanada faollashuvidan dalolat beradi (5-jadval). Oilada o'ziga olgan rollardan o'z manfaati uchun foydalanishni rolning suiiste'mol qilinishi deb ham izohlash mumkin. Moslashuv ziddiyati ($r=0,263$; $p<0,01$) ustunlik qilish/xulq-atvorni nazorat qilish bilan bog'liqligi sherik tomonidan to'liq nazorat ostida bo'lib, bu ishonchsizlik, shubha, rashk, izolyatsiya, cheklovlar, hissiy rad etish, shantaj, verbal agressiya orqali amalga oshiriladi, shaxs kurashishdan ko'ra vaziyatga moslashish kerak degan fikr bilan harakat qiladi.

5-jadval

Turmush o'rtog'i tomonidan namoyon etilgan zo'ravonlik xususiyatlari va shaxs ichki ziddiyatlari orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirman mezoni)

Shkalalar	Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	Umumiy beqarorlashtirish	Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish
Motivatsion ziddiyat	0,038	0,125*	0,251**	0,117*	0,166**
Ma'naviy ziddiyat	0,043	0,118*	0,265**	0,129*	0,149**
Amalga oshmagan istak ziddiyati	0,124*	0,173**	0,152**	0,086	0,048
Rolli ziddiyat	0,012	0,002	0,231**	0,200**	0,193**
Moslashuv ziddiyati	-0,015	0,091	0,243**	0,263**	0,285**
O'zini o'zi noadekvat baholash ziddiyati	0,126*	0,187**	0,334**	0,228**	0,208**
Shaxsning umumiy ichki ziddiyatlari darajasi	0,056	0,132*	0,288**	0,181**	0,193**

Izoh: * – $p<0,05$; ** – $p<0,01$

Turmush o'rtog'i tomonidan namoyon etilgan zo'ravonlik xususiyatlari "Hukmronlik/xulq atvorni nazorat qilish" va er-xotin muammolarni noadekvat hal qilish shkalari bo'yicha ko'rish mumkin. Bu psixologik zo'ravonlik yoki bosim oilada rollardan kutilmalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Zo'ravon shaxs tomonidan nazorat darajasi qancha yuqori bo'lsa, rollarda ideal bo'lish talabi shunchalik yuqori bo'lishi, ota-onalik vazifasini mukammal bajarish, o'z maqomini tasdiqlash usuli sifatida tashqi jozibadorlikni saqlab qolishni talab qilishi bilan izohlash mumkin. Rollarni mukammal bajarilishiga qanchalik ko'p umid bog'lansa, nomutanosiblik uchun jazo qo'llash xavfi shunchalik yuqori bo'ladi. Bu oiladagi zo'ravonlikning yashirin xususiyatlarini ko'rsatadi (6-jadval).

6-jadval

Turmush o‘rtog‘i tomonidan namoyon etilgan zo‘ravonlik xususiyatlari va sheriklarning rollardan kutilmalari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar (Spirman mezoni)

Shkalalar	Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	Umumiy beqarorlashtirish	Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish
Shaxsiy identifikatsiya	-0,110*	0,027	0,096	0,218**	0,201**
Xo‘jalik-maishiy (kutilma)	-0,056	0,044	-0,016	0,102	0,145**
Ota-onalik va tarbiyaviy (kutilma)	-0,022	-0,025	0,068	0,236**	0,214**
Ijtimoiy faollik (kutilma)	-0,036	0,005	0,156**	0,272**	0,225**
Emotsional-psixoterapevtik (kutilma)	-0,075	0,004	0,061	0,274**	0,195**
Tashqi jalb etuvchanlik (kutilma)	-0,023	0,011	0,078	0,277**	0,263**
Xo‘jalik-maishiy (da‘vogarlik)	-0,015	0,028	0,007	0,086	0,149**
Emotsional-psixoterapevtik (da‘vogarlik)	-0,063	-0,053	-0,037	0,131*	0,189**
Tashqi jalb etuvchanlik (da‘vogarlik)	-0,082	-0,07	0,047	0,186**	0,220**

Izoh: * – $p < 0,05$; ** – $p < 0,01$

Spontan agressivlik shkalasi umumiy beqarorlashtiruvchi xulq-atvor bilan bog‘liq ($r=0,183$; $p < 0,01$), bu sheriklarda impulsiv agressiya, bir-birini kamsitish, qadrsizlantirish va irodasiga qarshi harakat qilishga majburlashda namoyon bo‘ladi (7-jadval).

7-jadval

Turmush o‘rtog‘i tomonidan namoyon etilgan zo‘ravonlik xususiyatlari va Frayburg “Multfaktorli shaxs” so‘rovnomasi natijalari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar (Spirman mezoni)

Shkalalar	Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	Umumiy beqarorlashtirish	Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish
Asabiylilik	-0,013	0,023	0,126*	0,061	0,147**
Spontan agressivlik	-0,021	0,053	0,183**	0,124*	0,115*
Jizzakilik	-0,045	0,047	0,259**	0,273**	0,285**
Reaktiv agressivlik	-0,052	0,005	0,167**	0,162**	0,191**
Tortinchoqlik	-0,002	0,077	0,170**	0,141*	0,243**
Emotsional o‘zgaruvchanlik	-0,001	0,022	0,167**	0,054	0,152**

Izoh: * – $p < 0,05$; ** – $p < 0,01$

Jizzakilik shkalasi nikohning beqarorlashuvi bilan bog‘liqdir ($r=0,259$; $p < 0,01$): hissiy beqarorlik munosabatlarga putur yetkazadi. Bu holat o‘zini to‘liq nazorat qilish, shubhalanish, agressiya va sherigini hissiy rad etishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ziddiyatlar noto‘g‘ri hal etiladi – qarorlar bir tomonlama qabul qilinib, turmush o‘rtog‘ining manfaatlari e‘tiborsiz qoldiriladi (7-jadval).

Spirman mezoni bo‘yicha tahlil (9-jadval) xavotirlanish shkalasining shaxs mustaqilligi va maqsadlarini cheklaydigan jismoniy erkinlikni haddan tashqari

nazorat qilish ($r=0,179$; $p<0,01$) bilan, shuningdek, sherikni kamsitish va qadrsizlantirishda namoyon bo'luvchi umumiy beqarorlashtiruvchi xatti-harakat ($r=0,198$; $p<0,01$) bilan sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatdi.

8-jadval

Turmush o'rtog'i tomonidan namoyon etilgan zo'ravonlik xususiyatlari va psixik holatlar namoyon bo'lishi orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirman mezon)

Shkalalar	Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	Umumiy beqarorlashtirish	Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish
Xavotirlanish	0,103	0,179**	0,198**	-0,063	-0,03
Frustratsiya	0,066	0,134*	0,271**	0,081	0,075
Agressivlik	0,138*	0,152**	0,223**	-0,044	-0,047
Rigidlik	0,055	0,108	0,250**	0,087	0,115*

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$

Umumiy beqarorlashtiruvchi holatning frustratsiya ($r=0,271$; $p<0,01$) va rigidlik ($r=0,250$; $p<0,01$) shkalalari bilan ahamiyatli bog'liqligi aniqlandi (8-jadval). Bu shundan dalolat beradiki, shaxs o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida yengib bo'lmaydigan to'siqlarga duch kelganida hamda o'zgaruvchan obyektiv sharoitlarga javoban rejaları, maqsadlari va xulq-atvorini o'zgartirishda moslashuvchanlik yetishmaganida ichki beqarorlik kuchayadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Oilaviy zo'ravonlikka uchragan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va psixologik yordam ko'rsatish tizimida gender yondashuvi**" deb nomlanib, ushbu bobda oilaviy zo'ravonlik qurbonlarining psixologik xususiyatlari, muhtojligi, ichki ziddiyatlari, rol kutuvlari, tushkunlik va xavotir darajalari, shuningdek, mazkur holatlardagi gender farqlari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotda oilada zo'ravonlikka uchragan respondentlarda shaxs ichki ziddiyatlari namoyon bo'lishining ma'naviy ziddiyat ($p<0,01$), rolli ziddiyat ($p<0,01$), shaxsning umumiy ichki ziddiyatlari darajasi ($p<0,01$) ekani aniqlandi. Eraklarda ayollarga nisbatan ichki ziddiyatlarning kuchliroq ifodalanishini ko'rish mumkin (9-jadval).

9-jadval

Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot respondentlarda shaxs ichki ziddiyatlari namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Motivatsion ziddiyat	178,6	153,6	10166	0,021*
Ma'naviy ziddiyat	185,2	150,0	9404,5	0,001**
Rolli ziddiyat	186,2	149,5	9295	0,001**
Moslashuv ziddiyati	193,2	145,6	8490,5	0,000**
Shaxsning umumiy ichki ziddiyatlari darajasi	183,7	150,8	9582,5	0,003**

Izoh * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$

Erkaklar oilaviy mojarolarni ochiq muhokama qilishdan qochishga moyildirlar, chunki yordam so‘rashni ko‘pincha zaiflik belgisi sifatida qabul qiladilar. Ichki ziddiyatlar, o‘jizlik va aybdorlik hissi professional yordam uchun murojaat qilishga to‘sqinlik qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan erkaklarda asabiylashish, asabiylashish, reaktiv agressivlik, tortinchoqlik va vazminlik ayollarga nisbatan sezilarli darajada kuchliroq ($p < 0,01$) ekanligi aniqlandi (10-jadval). Bu dalil erkaklarning psixologik himoya mexanizmlarining o‘ziga xosligi va jarohatli tajribaga moslashishning gender xususiyatlaridan dalolat beradi.

10-jadval

Oilada zo‘ravonlikka uchragan respondentlarda J.Fahrenberg, X.Zarg, R.Gampellarning “Frayburg ko‘p omilli shaxs so‘rovnomasi” shkalalari ko‘rsatkichlarining jinsiy tafovutlari (Mann-Uitni U mezoni)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Asabiylik	183,0	151,2	9663	0,003**
Spontan agressivlik	176,1	155,0	10450,5	0,050*
Depressivlik	176,6	154,7	10397	0,044*
Jizzakilik	182,4	151,5	9726,5	0,004**
Reaktiv agressivlik	181,9	151,8	9791	0,005**
Tortinchoqlik	181,1	152,3	9876,5	0,007**
Emotsional o‘zgaruvchanlik	181,0	152,3	9884,5	0,008**

Izoh: * $p < 0,05$ ** – $p < 0,01$

Tadqiqot natijalari (11-jadval) oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarda reaktiv va shaxsiy xavotirlikning statistik jihatdan ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligini aniqladi ($p < 0,01$). Bu holat ularning travmatik hodisalarga nisbatan o‘ta sezgirligi va tahdid hissiga bog‘lanib qolishi bilan izohlanadi, buning natijasida xavotirlik ko‘pincha surunkali tus olib, doimiy xavfni kutish holatini shakllantiradi. Erkaklarda esa ikkala shkala bo‘yicha ko‘rsatkichlar ancha past ($p < 0,01$), bu xavotirning umuman yo‘qligidan emas, balki uning yashirin namoyon bo‘lishi, boshqa xulq-atvor reaksiyalariga (masalan, ta’sirchanlikka) o‘tib ketishi (sublimatsiya) va an’anaviy gender stereotiplari ta’siri bilan tushuntiriladi.

11-jadval

Oilada zo‘ravonlikka uchragan respondentlarda xavotirlanish namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezoni)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Reaktiv xavotirlanish	139,5	175,2	9371,5	0,001**
Shaxsiy xavotirlanish	131,0	179,8	8398	0,000**

Izoh: ** – $p < 0,01$

Oiladagi zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarda depressiya darajasi (Mann-Uitni mezoni) sezilarli darajada yuqori ($p < 0,01$) bo‘lib, bu uzoq davom etgan travmatizatsiya va kechinmalarni ichkilashtirishga moyillik bilan bog‘liq; erkaklar esa ijtimoiy kutilmalar tufayli depressiv alomatlarni yashirishga moyil. Bunda JKSR ko‘rsatkichlari erkaklarda sezilarli darajada yuqori ($p < 0,01$). Ushbu tafovut travmaning yashirin kechishi bilan bog‘liq: his-tuyg‘ularning bostirilishi, yordam

so‘rab murojaatlarning kamligi va jamiyatda erkaklarning zo‘ravonlik qurbonlari sifatida tan olinmasligi, bu esa travmadan keyingi stressning to‘planishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning **“Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishni eksperimental tadqiqi”** mavzusidagi to‘rtinchi bobida psixologik yordamning maqsad va vazifalari, oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish dasturining natijalari hamda tahlili berilgan. Oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslar bilan psixokorreksion ishlar ishtirokchilarning vaqt imkoniyatlaridan kelib chiqib moslashtirildi: uch oylik kurs yarim yil davomida (2023-yil iyul va 2024-yil yanvar oylarida) amalga oshirildi. Dastlabki diagnostikada sezilarli hududiy farqlar kuzatilmagani sababli eksperimental guruh Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi 20 nafar erkak va 40 nafar ayoldan tashkil topdi. Psixologik yordam ko‘rsatishni rad etishni istisno qiladigan axloqiy me‘yorlarga ko‘ra, nazorat guruhi shakllantirilmadi. Differeinsial yordam modellari-ning samaradorligi ishtirokchilarning treningdan oldingi va keyingi psixoemotsional holati guruh ichidagi dinamikaga asosan baholandi.

12-jadval

Treningda ishtirok etgan ayol respondentlarda J.Fahrenber, X.Zarg, R.Gampellarning “Frayburg ko‘p omilli shaxs so‘rovnomasi” shkalalari ko‘rsatkichlarining treningdan keyin o‘zgarishi (Uilkokson mezoni, n=40)

Ko‘rsatkichlar	Treningdan keyingi ko‘rsatkichlar o‘zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O‘zgarmagan		
Asabiylik	24	12	4	2,40	0,022*
Spontan agressivlik	25	10	5	3,00	0,004**
Depressivlik	23	8	9	3,00	0,004**
Jizzakilik	17	6	17	2,20	0,035*
Reaktiv agressivlik	25	10	5	3,00	0,004**
Tortinchoqlik	20	9	11	2,20	0,035*
Emotsional o‘zgaruvchanlik	23	9	8	2,80	0,008**

Izoh ** - $p < 0,01$

Ishtirokchilarning psixologik barqarorligi va moslashuvchan xulq-atvor uslubi shakllanganligi aniqlandi, bu spontan agressivlik (n=25), depressivlik (n=24) va asabiylashish (n=17) ko‘rsatkichlarining pasayishi, shuningdek, o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasining oshishi bilan tasdiqlanadi (2-jadval). Bu spontan tajovuzkorlik (n=25), depressivlik (n=24) va ta’sirchanlik (n=17) ko‘rsatkichlarining pasayishi, shuningdek, o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasining ortishi bilan tasdiqlanadi (12-jadval). Respondent ayollarda reaktiv (n=24) va shaxsiy (n=20) xavotirlanish darajasi pasaygani qayd etildi (13-jadval). Ko‘rsatkichlar dinamikasi psixologik aralashuv jarayonida reaktiv xavotirning yuqori darajada o‘zgaruvchan ekanini tasdiqlaydi, shaxsiy xavotir esa uzoq muddatli psixokorreksion ta’sirni talab qiluvchi barqaror xususiyat sifatida belgilandi.

Ayol respondentlarda Spilbergerning “Shaxsiy xavotirlanish so‘rovnomasi” ko‘rsatkichlari treningdan keyin reaktiv (n=24) va shaxsiy (n=20) xavotir ko‘rsatkichlari pasayganini ko‘rish mumkin. Reaktiv xavotir osonroq o‘zgarishi, shaxsiy xavotir esa barqaror bo‘lib, uzoq vaqt ishlashni talab qiladi (13-jadval).

13-jadval

Treningda ishtirok etgan ayol respondentlarda Spilbergerning “Shaxsiy xavotirlanish so‘rovnomasi” ko‘rsatkichlarining treningdan keyin o‘zgarishi (Uilkokson mezoni, n=40)

Ko‘rsatkichlar	Treningdan keyingi ko‘rsatkichlar o‘zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O‘zgarmagan		
Reaktiv xavotirlanish	24	8	8	3,20	0,002**
Shaxsiy xavotirlanish	20	7	13	2,60	0,014*

Izoh** - $p < 0,01$

Treningda ishtirok etgan ayollarda jarohatli hodisaning ta‘sirini baholash ko‘rsatkichlarining treningdan keyin (Uilkokson mezoni (n=40) ayollarning 25 nafarida ijobiy dinamika ya‘ni stress ifodalanishining pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga 13 nafar respondentda stress reaksiyasini kuchaygani, 2 nafarida esa oz‘garmagan kuzatildi, bu jarohatli xotiralarni faollashgani vaqtincha alomatlarini kuchaytirishi bilan izohlanadi (14-jadval). Psixologik yordam dasturidagi kognitiv texnikalar, ya‘ni fikrlar bilan ishlash, muammolarni tahlil qilish, stress kundaligini yuritish, shuningdek, zo‘riqish, hissiyotlar va salbiy reaksiyalarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni qayd etish hamda tahlil qilish ko‘nikmalarini egallash orqali jarohatni boshdan kechirgan ayollarda stress reaksiyalarining pasayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani kuzatildi. Ayol respondentlarda xavotirlanishning pasayishi maqsadlarga erishishda mavjud to‘siqlarni yengishga harakat qilishning oshishiga olib keladi. 20 nafar respondent umidsizlikka uchragan hayotiy vaziyatlarda ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, bu esa o‘z navbatida, hayotiy vaziyatlarda ishlashning normal qobiliyatini ko‘rsatadi (14-jadval). Rigidlik 26 nafar ishtirokchida pasaygan, respondentlar o‘zgaruvchan vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini qayta qurishda qiyinchiliklarni bosib o‘ta olishlari, osonlik bilan bir faoliyatdan boshqasiga o‘tishlari hamda o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish imkoniyatlariga ega bo‘lganliklaridan dalolat beradi (14-jadval).

14-jadval

Treningda ishtirok etgan ayol respondentlarda psixik holatlar namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichlarining treningdan keyin o‘zgarishi (Uilkokson mezoni, n=40)

Ko‘rsatkichlar	Treningdan keyingi ko‘rsatkichlar o‘zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O‘zgarmagan		
Xavotirlanish	22	11	7	2,20	0,035*
Frustratsiya	20	6	14	2,80	0,008**
Agressivlik	27	13	0	2,80	0,008**
Rigidlik	26	8	6	3,60	0,001**

Izoh: * – $p < 0,05$; ** – $p < 0,01$

Treningda ishtirok etgan ayollarda jismoniy salomatlikka tahdid qilish 26 nafar, jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish 24 nafar, umumiy beqarorlashtirish 25 nafar, er-xotin muammolarini noadekvat hal etish 22 nafar va ustunlik qilish/xulq-atvorni nazorat qilish 15 nafar respondentda kamaydi (15-jadval).

Jismoniy salomatlikka tahdid, erkinlikni nazorat qilish va umumiy barqarorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, tahdidlarni aniqlash va oldini olish jismoniy salomatlikka tahdid sifatida qabul qilinadigan holatlar kamayishiga olib keldi. Shaxsiy chegaralarni aniq belgilash ko'nikmalari, sherigining harakatlanishi, muloqot va mustaqil qaror qabul qilishni cheklashga qarshi tura olishi, oilaviy muhitdagi umumiy beqarorlikning pasayishiga, respondentlarda o'z ehtiyojlarini yanada ishonchli bayon eta olishlari orqali o'zaro munosabatlardagi tartibsiz, noaniqlik va hissiy zo'riqishlarni kamaytirganini ko'rish mumkin (15-jadval).

15-jadval

Treningda ishtirok etgan ayol respondentlar "Turmush o'rtog'i tomonidan zo'rvonlik namoyon etilishi" shkalalari ko'rsatkichlarining treningdan keyin o'zgarishi (Uilkokson mezoni, n=40)

Ko'rsatkichlar	Treningdan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O'zgarmagan		
Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	26	11	3	3,00	0,004**
Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	24	8	8	3,20	0,002**
Umumiy beqarorlashtirish	25	10	5	3,00	0,004**
Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	15	14	11	0,20	0,391
Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish	22	11	7	2,20	0,035*

Izoh: * – $p < 0,05$; ** – $p < 0,01$

Treningda ishtirok etgan erkak respondentlarda asabiylik, depressiya, tortinchoqlik kabi ko'rsatkichlarning pasaygani va bu o'zgarishlarning statistik ahamiyati yuqori ekanligi kuzatiladi. Ushbu ko'rsatkichlarning sezilarli darajada pasayishi respondentlarda asabiy, depressiya holatlarini yengishga yordam berganini ko'rsatadi. Ushbu holatni his-tuyg'ularni boshqarish ko'nikmalarini o'zlashtirish deb izohlash mumkin. Spontan va reaktiv agressiyaning pasayishi o'zini o'zi boshqarishning rivojlanishi va muloqot ko'nikmalarining yaxshilanishini ko'rsatadi (16-jadval).

16-jadval

Treningda ishtirok etgan erkak respondentlarda J.Fahrenber, X.Zarg, R.Gampellarning "Frayburg ko'p omilli shaxs so'rovnomasi" shkalalari ko'rsatkichlarining treningdan keyin o'zgarishi (Uilkokson mezoni, n=20)

Ko'rsatkichlar	Treningdan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O'zgarmagan		
Asabiylik	12	4	4	3,20	0,002**
Spontan agressivlik	11	5	4	2,40	0,022*
Depressivlik	13	4	3	3,60	0,001**
Jizzakilik	10	4	6	2,40	0,022*
Reaktiv agressivlik	12	6	2	2,40	0,022*
Tortinchoqlik	12	4	4	3,20	0,002**
Emotsional o'zgaruvchanlik	12	6	2	2,40	0,022*

Izoh: * – $p < 0,05$; ** – $p < 0,01$

Spilbergerning “Shaxsiy xavotirlanish” so‘rovnomasi ko‘rsatkichlari treningdan keyin reaktiv xavotirlanish 11 nafar va shaxsiy xavotirlanish 12 nafar respondentda kamaygan (17-jadval). Guruh bilan ishlash jarayonida respondentlar, noaniq vaziyatlarni chaqiriq yoki imkoniyat sifatida ko‘rishni o‘rganishlari, o‘z fikrlash jarayonini anglash, xavotirli fikrlardan o‘zini chetga olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, hissiyotlarni bostirish emas, balki qayta ishlashning barqaror strategiyalarini shakllantirish, noaniqlik va noqulaylikka tolerantlikni rivojlantirish, xavfsiz mashg‘ulot muhitida qiyinchiliklarni yengib o‘tish tajribasi respondentlarda reaktiv va shaxsiy xavotirlanish darajasini pasaytirishga olib kelgani kuzatildi.

17-jadval

Treningda ishtirok etgan erkaklarda Spilbergerning “Shaxsiy xavotirlanish” so‘rovnomasi shkalalari ko‘rsatkichlarining treningdan keyin o‘zgarishi (Uilkokson mezoni, n=20)

Ko‘rsatkichlar	Treningdan keyingi ko‘rsatkichlar o‘zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O‘zgarmagan		
Reaktiv xavotirlanish	11	4	5	2,80	0,008**
Shaxsiy xavotirlanish	12	3	5	3,60	0,001**

Izoh: ** - $p < 0,01$

Treningda ishtirok etgan erkaklarda “Jarohatli hodisaning ta‘sirini baholash” ko‘rsatkichlari treningdan keyin (Uilkokson mezoni, n=20) 11 nafar ishtirokchida JKSR pasaygan, 5 nafarida oshgan va 4 nafarida o‘zgarmagan (18-jadval). Emotsional o‘z-o‘zini, fikrlar va faktlarni ajrata olish, potensial stressli vaziyatda harakat strategiyalarini oldindan o‘ylab ko‘rish, o‘zlarining kuchli tomonlarini aniqlash, ya‘ni o‘tmishda qiyinchiliklarni yengishga yordam bergan shaxsiy fazilatlar va tajribalarni dolzarblashtirish, hissiy tayanch beradigan munosabatlarni o‘rnatish, guruhda jarohatli hodisalarni xavfsiz muhokama qilish tajribasiga ega bo‘lish orqali stress reaksiyalarining pasaygani kuzatildi.

18-jadval

Treningda ishtirok etgan erkak respondentlarda psixik holatlar namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichlarining treningdan keyin o‘zgarishi (Uilkokson mezoni, n=20)

Ko‘rsatkichlar	Treningdan keyingi ko‘rsatkichlar o‘zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O‘zgarmagan		
Xavotirlanish	13	4	3	3,60	0,001**
Frustratsiya	11	4	5	2,80	0,008**
Agressivlik	12	3	5	3,60	0,001**
Rigidlik	11	5	4	2,40	0,022*

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Mashg'ulotlar erkak respondentlarning (n=20) ruhiy holatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatib, xavotirlik (13 ishtirokchi), tajovuzkorlik (12 ishtirokchi), frustratsiya va rigidlik (n=11) darajalarini pasaytirishga yordam berdi (1-jadval). Frustratsiya va agressivlik ko'rsatkichlarining optimallashtirilishiga sel qo'yish, fiziologik reaksiyalar refleksiyasi, relaksatsion texnikalar va "Men-mulohazalar"ni qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirish orqali erishildi. Ulkokson mezoni bo'yicha takroriy diagnostika "Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlik ko'rinishlari" shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarning statistik jihatdan sezilarli darajada pasayishini qayd etdi: xususan, jismoniy salomatlikka tahdid xavfi (n=12) va umumiy beqarorlik (n=13) kamaydi. Shuningdek, jismoniy erkinlikni haddan tashqari nazorat qilish (n=11), hukmronlikka intilish (n=10) va kumulyativ muammolarni hal qilishning buzg'unchi usullari (n=8) pasayganligi qayd etildi (19-jadval). Ijobiy dinamika oilaviy o'z-o'zini boshqarishning rivojlanishi, ichki chegaralarni hurmat qilish, hamkorga bo'lgan ishonchning ortishi va oilaviy o'zaro ta'sirning konstruktiv namunalarni o'zlashtirish bilan bog'liq.


19-jadval

Treningda ishtirok etgan erkak respondentlarda "Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlik namoyon etilishi" shkalalari ko'rsatkichlarining treningdan keyin o'zgarishi (Ulkokson mezoni, n=20)

Ko'rsatkichlar	Treningdan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O'zgarmagan		
Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	12	4	4	3,20	0,002**
Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	11	5	4	2,40	0,022*
Umumiy beqarorlashtirish	13	4	3	3,60	0,001**
Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	10	4	6	2,40	0,022*
Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish	8	7	5	0,40	0,368

Ilmiy tadqiqot doirasida olingan natijalar asosida zo'ravonlikdan jabrlanganlar uchun ijtimoiy-psixologik yordam modeli zo'ravonlikning turli shakllarini boshdan kechirgan odamlarni qo'llab-quvvatlash va psixologik farovonligini tiklashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Ushbu model jabrlanuvchilarga psixologik muammolarni bartaraf etish, jarohat ta'sirini yengish va normal hayotga qaytishga yordam beradigan qator qadamlar hamda strategiyalarni o'z ichiga oladi (4-rasm).

Oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatish kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, hissiy-fokuslangan terapiya, psixosintez, shuningdek, art-terapiya elementlari va tanaga yo'naltirilgan relaksatsiya amaliyotlarini kompleks qo'llashga asoslanadi. Asosiy vazifalar mijoz bilan ishonchli va empatik aloqa o'rnatish, shuningdek, hissiy reaksiyalar va o'zgarishlarga qarshilikning tub sabablari natijasida shakllangan buzilgan voqelik idrokini tuzatishdan iborat.



4-rasm. Oilaviy zo'ravonlikka uchragan shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish modeli

Oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatish kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, hissiy-fokuslangan terapiya, psixosintez, shuningdek, art-terapiya elementlari va tanaga yo'naltirilgan relaksatsiya amaliyotlarini kompleks qo'llashga asoslanadi. Asosiy vazifalar mijoz bilan ishonchli va empatik aloqa o'rnatish, shuningdek, hissiy reaksiyalar va o'zgarishlarga qarshilikning tub sabablari natijasida shakllangan buzilgan voqelik idrokini tuzatishdan iborat.


Psixologik ko'mak xavotir, g'azab, tushkunlik holatlari va boshqa salbiy hissiyotlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, jarohat oqibatlarini yengib o'tish va psixologik farovonlikni tiklash bo'yicha individual rejani ishlab chiqishga qaratilgan. Mijozning maxfiyligi, anonimligi va xavfsizligini ta'minlashga alohida ahamiyat beriladi.

Psixologik yordam samaradorligi multimodal o'zaro ta'sir, mutaxassislar bilan integratsiya hamda kasbiy etika me'yorlariga rioya qilgan holda psixologik ta'sir usullarini mijozning individual xususiyatlariga moslashtirish hisobiga oshadi.

Ayollar uchun psixologik yordam ko'rsatish modelida asosiy urg'u hissiyotlar bilan ishlashga, jarohatning somatik (tana bilan bog'liq) belgilarini yengib o'tishga va xavfsizlik tuyg'usini tiklashga qaratiladi (5-rasm).

OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH MODELII

KOGNITIV XULQ-ATVOR TERAPIYASI



Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarni psixologik qo‘llab quvvatlash va yordam ko‘rsatish modelining qisqacha tavsifi:

1. Birinchi navbatda tana va hissiyotlar barqarorlashtiriladi (1- bosqich).
2. Psixologiq jarohatlar bilan bog‘liq holatlar bilan ishlash (2-bosqich).
3. O‘z shaxsi ustida faol ishlash, yangi ko‘nikma va malakalar o‘zlashtirish, hayot strategiyalarini tuza olishga erishish (3-bosqich).


5-rasm. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarga psixologik yordam ko‘rsatish modeli

Maqsad – stressni kamaytirish, kayfiyatni barqarorlashtirish va salbiy affektlardan kognitiv va somatik jihatdan forig‘ bo‘lishdir. Metodologik bosqichlari esa ayollar jarohatni yumshatish, og‘riqli xotiralarga sezgirlikni kamaytirish ustida va o‘z muammolarini verbal yetkazish qiyin bo‘lgan vaqtda art terapiyasidan foydalanish, o‘z shaxsi ustida faol ishlash, yangi ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, hayot strategiyalarini tuza olishga erishish, takroriy zo‘ravonlikning oldini olish ko‘nikmalarini egallashdan iborat

Erkaklar uchun psixologik yordam ko‘rsatish modelida asosiy urg‘u o‘z qadr-qimmatini tiklash, ojizlik hissidan xalos bo‘lish, jarohatli tajribani sog‘lom tafakkur tizimiga integratsiya qilishga qaratilgan (6-rasm). Maqsad – shaxs tuzilmasini mustahkamalsh, jarohatli tajribani sog‘lom fikrlash doirasida qayta ishlash.

OILADAGI ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN ERKAKLARNI QO‘LLAB- QUVVATLASH VA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH MODELII

KOGNITIV XULQ-ATVOR TERAPIYASI



6-rasm. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan erkaklarga psixologik yordam ko‘rsatish modeli

Metodologik bosqichlari esa erkaklarda bu nafaqat stressni kamaytirish, balki xavfsiz muhit yaratish va dastlabki qayta ijtimoiylashuv, ichki ziddiyatlarni hal etish orqali o‘z hayotining muallifi ekanlik hissini va ijtimoiy shaxsiy kompetentligini qayta shakllantirish, muammoli holatlarni tahlil qilish va ichki agressiv dunyodan sog‘lom “men”ni ajratish holatlarni tahlil qilish, ichki agressiv dunyodan sog‘lom “Men”ni ajratishdan iborat.

XULOSA

“Zo‘ravonlikka uchragan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam ko‘rsatish texnologiyalarini takomillashtirish” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Tadqiqot davomida aniqlangan oilaviy zo‘ravonlikning sabab, oqibatlarini o‘rganishda nazariy va uslubiy asoslarning yetishmasligi milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kompleks ijtimoiy psixologik yondashuvlar hamda ilmiy

asoslangan psixologik yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish dolzarbligini ta'kidlaydi.

2. Zo'ravonlikka uchragan shaxslar bilan ishlashning psixoterapevtik amaliyotlarini baholashda SWOT-tahlil qo'llanilgan vositalarning samaradorligi va ularning shaxs ehtiyojlariga muvofiqligini isbotlash imkonini berib, tahlil davomida aniqlangan yondashuvlarning kuchli imkoniyatlarini qo'llash bilan birga, zaif, ehtimoliy tahdid tomonlarini takomillashtirish va psixologik yordam ko'rsatish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

3. Oiladagi agressiv va zo'ravonlik xatti-harakatlarini idrok etishda gender omillarning dixotomiyasi, ya'ni ayollar jabrlanuvchi holatiga tushib qolishni jismoniy tahdid deb bilib, o'z xatti-harakatlarini muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar bilan izohlashi, erkaklar esa o'z agressiya va zo'ravonlik harakatlarini hokimiyat iyerarxiasini saqlash vositasi sifatida oqlashi, genderga oid jihatlarni hisobga oluvchi psixologik qo'llab-quvvatlash va yordam berish dasturlarini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatadi. Bunday dasturlar mazkur kognitiv modellarni qayta qurish va zo'ravonliksiz munosabat ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

4. Zo'ravonlikdan jabrlanganlarning destruktiv xulq-atvorlari jismoniy erkinlikni to'liq nazorat qilish, hukmronlikka intilish, umumiy beqarorlik hamda muammolarga noadekvat yondashishda namoyon bo'lib, bu agressiv va zo'ravonlikka asoslangan munosabatlar shaxs deformatsiyasiga olib keluvchi omil sifatida ko'riladi. Natijada, patologik rol da'volari o'sishi, chuqur ichki nizolarning kuchayishi va barqaror salbiy psixoemotsional holatlarning yuzaga kelishi kabi oqibatlar kelib chiqadi.

5. Oilaviy zo'ravonlik qurbonlarini psixologik qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish uchun yaratilgan integrativ model xavotir, depressiya, frustratsiyani kamaytirish hamda buzg'unchi ong, xulq-atvor patternlarini moslashuvchan mexanizmlarga aylantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon ichki resurslarni faollashtirish, kognitiv qayta qurish va barqaror hissiy o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

6. Oilaviy zo'ravonlikka uchragan erkak va ayollar uchun alohida psixologik qo'llab-quvvatlash va yordam modellarini ishlab chiqish zarurati har ikkala jins vakillarining ijtimoiy rollari, psixologik xususiyatlari, og'ir ijtimoiy vaziyat va jarohatni boshdan kechirishdagi tajribalari, shuningdek, subyektivlikni tiklashga bo'lgan o'ziga xos ehtiyojlarining namoyon bo'lishi bilan bog'liq.

7. Psixologik yordam ko'rsatishda "birgalikdagi alomatlar", ya'ni xavotir, depressiya, jarohatdan keyingi stress reaksiyasi va boshqalar birgalikda kelganda jarohatga yo'naltirilgan, jarohatdan keyingi stress buzilishi bilan murakkablashgan ruhiy o'zgarishlar guruhini aniqlash, ruhiy holatdagi o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, psixologik holat yomonlashuvidan oldin qo'zg'atuvchi omillar mavjudligi, muammolarning "jalb qilish" xususiyati, ya'ni viktimlik (jabrlanuvchilik), zo'ravonlikdan jabrlanish va jarohatli xarakterdagi boshqa ta'sirlarni yengil o'ziga qabul qilish jarayonlarini hisobga olish kerak.

8. Shaxsga nisbatan (erkak yoki ayol) zo'ravonlik eng og'ir ruhiy jarohatlardan biri bo'lib, zo'ravonlikni boshdan kechirgan insonga o'z vaqtida ko'rsatilgan psixologik yordam uning o'zini o'zi qadrlashi, boshqa odamlarga bo'lgan ishonchini

tiklash, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda agressiv, rigidlik, frustratsiya, JKSR, o'z-o'zini identifikatsiya qilish, gender munosabatlari haqidagi fikrlar va jinsiy munosabatlarda zo'ravonlik xatti-harakatlarining oldini olish, oilaviy rollari va oilaviy munosabatlardagi xatti-harakatlar normalarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tadqiqot natijalari va ular asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etamiz:

Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar uchun:

1. Mavjud vaziyatni tubdan o'zgartirmasangiz-da, hech bo'lmaganda, o'ylash uchun qisqa tanaffus qilinishi lozim.

2. Moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lishga harakat qilish va o'ziga nisbatan hurmatni oshirish kerak.

3. Agar turmush o'rtog'ingizning vaziyatni to'g'ri tushunadigan qarindoshlari bo'lsa, ularga uning xatti-harakati, ma'naviy kamsitish va tajovuzlariga dosh berishga majbur ekaningiz haqida xabar berish maqsadga muvofiq.

4. Tajribali psixologlar vahima qo'zg'atadigan nochor holatni, o'zingizning qobiliyatsizligingizni hamda siz va farzandlaringiz uchun yolg'izlikni yengishingizga yordam berish kerak.

Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan erkaklar uchun:

1. Muammoni tan olish va yordam so'rash erkak yoki er sifatida muvaffaqiyatsizlikka uchraganini anglatmaydi. Bu shaxsning aybi emas va bu erkakning zaifligi. O'zini yengil his qilish va juda zarur yordam olishdan tashqari jabrlangan haqidagi tafsilotlarni oshkor qilish ham zo'ravonlikka qarshi chiqishdagi birinchi qadam bo'lishini anglash kerak.

2. Vaziyatdan qochish uchun qasos olish yoki kuch ishlatishga harakat qilmaslik lozim. Agar erkak kishi yangi munosabatlarga kirishishni va nihoyat, yetishmayotgan yaqinlik va yordam olishni xohlasa ham, oqilona qaror qabul qilishga intilish lozim. Sog'lom yangi munosabatlarni o'rnatish uchun nima kerakligini bilish maqsadga muvofiqdir.

3. Oila va do'stlarning yordami, shuningdek, oilaviy zo'ravonlikdan jabrlanganlar uchun maslahat, terapiya va qo'llab-quvvatlash guruhlarini erkakka haqoratli munosabatlarni tark etishga yordam berishga isonch hosil qilish kerak.

Amaliyotchi psixologlar uchun:

1. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda, albatta, uning ijtimoiy muhitini o'rganish va ikkinchi tomonni ham tinglash, oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ish olib borishda psixodiagnostik materiallarni shaxsda ruhiy jarohat va jarohat bo'lmagan psixologik holatlarni aniqlashga qaratish kerak.

2. Psixologik yordam ko'rsatishda asosiy urg'uni sodir bo'lgan voqeani adekvat hamda aniq tushunish, o'zining haqiqiy his-tuyg'ularini anglash, reaksiyalarni boshqarish, ta'sirni yengish, shaxs chegaralarini qurish, o'ziga va boshqalarga munosabatni aniqlashtirishga, psixotravma oqibatlarini bartaraf etish uchun konstruktiv xatti-harakatlar modellarini shakllantirishga yordam berish lozim.

3. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxsning vaziyatini nazorat qilish hamda o'z hayoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish hissini kuchaytirish va qo'llab-quvvatlash. Zo'ravonlik oqibatlarini yengish qobiliyatini baholashda yordam

ko'rsatish, uning qarindoshlari yoki do'stlaridan qaysi biri uni qo'llab-quvvatlashi mumkinligini aniqlash va uni jarohatlanish mumkin bo'lgan reaksiyalarga tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha mahalla faollari va ijtimoiy ish xodimlari uchun:

1. Oilaviy zo'ravonlik va nizolar kim tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar (er yoki xotin) jismoniy va ruhiy zo'ravonlik holatlari bo'yicha kelib tushgan shikoyatlarni ro'yxatga olish hamda samarali tekshirish tartibini belgilash lozim.

2. Zo'ravonlikdan jabrlangan barcha shaxsga jinsidan qat'i nazar (erkak yoki ayol), konsultatsiya xizmatlari, tiklanish va reabilitatsiya imkoniyatini ta'minlash. Oilaviy zo'ravonlik holatlarini o'rganish va oilaga yordam ko'rsatishda neytral munosabatni shakllantirish, erkak va ayolning oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarda ularning o'rni va rolini ko'rsatishga xizmat qilishi kerak.

Shuningdek, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzurida oilaviy zo'ravonlikni erta aniqlash, ularning oldini olish hamda bartaraf etish, oilaviy zo'ravonlik sabablari, omillarini tizimli ilmiy-amaliy o'rganish, oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxs va ularning oilalari bilan tizimli psixologik ish olib borish maqsadida "Oilaviy psixologik xizmat ko'rsatish" markazini tashkil etish va **"Gender zo'ravonlikka javoban psixologik xizmat ko'rsatishning standart operatsion ish tartiblari"**ning 2.3.2. Uzoq muddatli majmuaviy psixologik qo'llab-quvvatlash bandining psixolog yordami vazifasiga 4-vazifa qilib JKSR bilan ishlashni kiritish maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.01/2025.27.12.P.03.02. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАН**

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «ОИЛА ВА ГЕНДЕР»

ИСМАЙЛОВА РАЪНО НУРАЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ОКАЗАНИЯ ПОДДЕРЖКИ И
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ЖЕРТВАМ НАСИЛИЯ**

19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc)
ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора психологии (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.1.DSc/P57.

Диссертация выполнена в научно-исследовательском институте «Оила ва гендер».

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, английский, русский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета (www.psi-ik.uz) и информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).

Научный консультант: **Кадыров Камолиддин Батырович,**
доктор психологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Абдуллажанова Дилноза Султанбековна**
доктор психологических наук (DSc), профессор

Рузикулов Фахриддин Расулович
доктор психологических наук (DSc), профессор

Исакова Муаззам Тулкиновна
доктор психологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: **Бухарский Международный университет**

Защита диссертации состоится 2026 года в ... часов на заседании Научного совета DSc.01/2025.27.12.P.03.02 по присуждению учёных степеней при Национальном педагогическом университете Узбекистана (Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национального педагогического университета Узбекистана (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2026 года.
(протокол реестра рассылки № ____ от « ____ » _____ 2026 года).

А.Э. Мухтарова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
психологических наук (DSc), профессор

Д.У. Абдуллаева
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
психологических наук (DSc), профессо

А.Э. Мухтарова
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
психологических наук(DSc), профессор

Введение (аннотация диссертации доктора психологии (DSC))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Мир уже давно борется на международном уровне с проблемами гендерного и бытового насилия, в частности, с расширением прав и возможностей женщин, их защитой от различных форм насилия и борьбой с насилием по признаку пола. В условиях, когда около 30% женщин во всём мире подвергаются физическому и сексуальному насилию, каждая восьмая ежегодно сталкивается с насилием в семье, а до 25% населения по-прежнему оправдывают избиение женщин, международное сообщество, продвигающее гендерное равенство на глобальном уровне со времён Пекинской конференции 1995 года, работает над защитой пострадавших и искоренением дискриминации¹.

В мировой психологии проводится множество исследований, посвященных распространённости проблемы насилия в отношении женщин и детей в обществе, его тяжелым последствиям в процессе формирования и развития личности, негативному влиянию насилия на психическое здоровье членов семьи, причинам, факторам, провоцирующим насилие в семье, его профилактике и устранению. Когда бытовое насилие классифицируется на определенные виды, а не на обобщения, дети (девочки-мальчики), пожилые люди, мужчины и женщины, то есть происходит гендерное разделение, в психологии которого проблема насилия в отношении женщин и детей широко распространена в обществе, происходит формирование и развитие его личности.

Проблема бытового насилия в нашей стране угрожает безопасности не только конкретного человека, но и всего общества, обоснован принятием законов Республики Узбекистан от 2 сентября 2019 года «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» и «О защите женщин от домогательств и насилия». В разделе 1.3 программы развития «O‘zbekiston – 2030», посвящённом реформам в сфере предоставления социальных услуг и сокращения бедности, предусмотрено формирование в обществе атмосферы нетерпимости к притеснению и насилию в отношении женщин, а также дальнейшее развитие системы обеспечения прав и законных интересов женщин. Данная диссертационная работа направлена на продолжение и дополнение ряда зарубежных и отечественных научных исследований в области социальной психологии, этнопсихологии и семейной психологии, а также обусловлена недостаточной разработанностью методов и техник оказания психологической помощи и поддержки лицам, пострадавшим от семейного насилия. Предлагаемая концептуальная схема анализа проблемы насилия в семье и насилия в гендерных отношениях является одной из попыток всесторонне и системно рассмотреть психологические проблемы «насилия в семье», «женщины-жертвы» и «мужчины-жертвы», что позволяет выявить механизмы оказания эффективной психологической помощи в ситуации

¹Progress on the sustainable development goals: the gender snapshot 2025// <https://asiapacific.unwomen.org/en/digital-library/publications/2025/10/the-gender-snapshot-2025>

насилия в семье, выявить закономерности возникновения насилия, конфликтных ситуаций и т.д., обогащает теорию и практику оказания психологической помощи проблемным семьям.

Данная диссертация в определённой степени способствует теоретическому и практическому решению приоритетных задач, установленных в Законе Республики Узбекистан № УП-829 от 11 апреля 2023 года «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с дальнейшим совершенствованием системы надёжной защиты прав, свобод и законных интересов женщин и детей», Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» и № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии “Узбекистан – 2030”», Постановлении № УП-175 от 10 мая 2024 года «О дополнительных мерах по совершенствованию оказания социальных услуг лицам, пострадавшим от притеснения и насилия», Законе Республики Узбекистан № УП-989 от 5 ноября 2024 года «О психологической помощи населению», а также в ряде других нормативно-правовых актов с учётом социально-психологических и национальных особенностей.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий в Республике: I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в развитии информационного общества и демократического государства в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском аспектах».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Исследования, направленные на изучение социально-психологических аспектов семейного насилия, а также на разработку и внедрение передовых методов оказания психологической помощи, реабилитации и системной поддержки пострадавшим, ведутся в ведущих мировых организациях и научно-исследовательских центрах, таких как: Манчестерский университет (Великобритания), Центр академической первичной медико-санитарной помощи (Бристольский университет, Великобритания), Департамент психологии Колледжа искусств, гуманитарных и социальных наук, Американская психологическая ассоциация (АРА, США), Ассоциация психологических наук (АПС, США), Австралийское психологическое общество (АПС), Национальная ассоциация школьных психологов (НАСП, США), Санкт-Петербургский государственный университет (Россия).

На основе международных исследований, посвящённых поддержке и оказанию помощи лицам, пострадавшим от насилия, а также совершенствованию системы их обслуживания, были получены следующие результаты: изучено межведомственное взаимодействие в сфере защиты от семейного насилия в период пандемии, адаптация служб поддержки пострадавших и систематизирован передовой опыт превентивных программ в условиях изоляции (Великобритания); разработаны программы раннего вмешательства при случаях семейного насилия, его предотвращения и повышения психологической компетентности лиц, пострадавших от насилия,

повышения осведомлённости о рисках в семейных отношениях, факторах защиты, развитии супружеских отношений и брачном просвещении, направленные на преодоление трудностей, вызванных семейным насилием, и на искоренение всех его форм, а также программы по осмыслению, контролю и предотвращению насилия (США); систематизировано проведение междисциплинарных исследований в области борьбы с насилием и в сфере семейно-бытовых отношений (Россия)¹.

